



BERILGAN RASMLI MASALALAR USTIDA IJODIY ISHLASH USULLARI

Alijonova Sarvinoz Ravshanbek qizi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Asimov Alijon

Fizika va matematika fanlari doktori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshayotganligi, Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yishi, matematika o'qitish metodikasi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *matematika, metodika, o'zgarishlar, o'qituvchi, o'quvchi, sinf, shakllantirish, vazifa, imkoniyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются о значение математики возрастает в современный период экономических преобразований, методика преподавания математики - это прежде всего задача обучения и воспитания младших школьников в общей системе, методика преподавания математики.*

Ключевые слова: *математика, методика, изменения, учитель, ученик, класс, образование, задача, возможность.*

1997 yilda «Ta'lim to'g'risida qonun» qabul qilindi. Bu qonunda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida maktabning roli yanada o'sganligi, maktabning bosh vazifasi - o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berish ularda iqtisodiy - matematik savodxonligini shakllantirish, hayotga va ongli kasb tanlashga tayyorlash haqida, hamda o'quv reja va dasturlarni ta'lim mazmunini hozirgi zamon yutuqlari va talablari darajasiga keltirish to'g'risida fikrlar keltiriladi. Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo'lib Shveytsariyalik pedagog matematik G.Pestalosining 1803-yilda yozgan "Sonni ko'rgazmali o'rganish" asarida bayon qilingan.

Ulkan iqtisodiy o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi davrda matematikaning ahamiyati yanada oshdi, shuning uchun ham matematik ta'lim katta ijtimoiy ahamitga ega. Respublikamiz hukumati yoshlarga ta'lim va tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ta'lim va tarbiyani turmushning oshib borayotgan talablari darajasiga yetkazish vazifasini qo'ydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Sodda masalalar bitta amal bilan yechish mumkin bo'lgan masalalar jumlasiga kiritiladi. Bir nechta sodda masaladan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar tarkibli masalalar deyiladi. Har qanday sodda masalaga doir ikkita teskari masala tuzish mumkinki, ularning har biriga o'sha syujet bo'yicha izlanayotgan son sifatida esa to'g'ri masala shartida ma'lum bo'lgan son qatnashadi.





Masalan: hovlida 5 ta bola o'ynayotgan edi. Ularning 2 tasi uyga ketdi. Hovlida nechta bola qoldi? Masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Birinchisi, Hovlida bir nechta bolalar o'ynayotgan edi. 2 ta bola uyiga ketgandan so'ng, hovlida 3 ta




bola qoldi.

- 1) o'g'il bolalar 5 ta;
- 2) uyga ketdi 2ta
- 3) hovlida nechta bola qoldi?

Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir sodda masalalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga zamin yaratib, o'quvchilarni fikrlash dunyoqarashini kengaytirib, ularni zehni va hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash bosh maqsaddir.

Oldin bu masalani qisqacha shartini tuzib olamiz:

- 1) oldin savatdagi olmalar sonini x bilan belgilab olamiz;
- 2) savatdagi olmalar va yana terib kelib qo'shilgan olmalar sonini $(x+17)$ deb olamiz;
- 3) barchasi 32 ta bo'ladi va tenglama quyidagicha tuziladi: $x + 17 = 32$.



Bor edi - ? olma





Uzib kelindi - 17 ta olma

Barchasi - 32 ta bo'ldi.

Masalani tenglama usul bilan yechishda o'quvchining taxminiy mulohazalari: "savatdagi olmalar sonini x bilan belgilasak, uzib kelingan olmalar 17 ta, barchasi 32 ta bo'ldi va savatda qancha olma bo'lgan?" demak, masalaning shartiga ko'ra tenglama tuzib ishlaymiz.

Yechish: $x+17=32$

$x=32-17$

$x = 15$ demak, savatda 15 ta olma bo'lgan.

O'quvchilar uchun eng qiyin vaziyat noma'lumni to'g'ri o'rinda ishlatib, tenglamani to'g'ri tuzishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil .

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.

